

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAG‘INDIKOV BAXITJAN ABDIJANOVICH

**1917-1941-YILLARDAGI QORAQALPOG‘ISTON MADANIYATI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Sagindikov Baxitjan Abdijanovich

1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston madaniyati: muammo va yechimlar 3

Сагынди́ков Бахытжа́н Абдижа́нович

Культура Каракалпакстана в 1917-1941 годы: проблемы и решения27

Sagindikov Bahkitjan Abdijanovich

The culture of Karakalpakstan 1917-1941: problems and solutions53

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works57

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/30.12.2019. Tar. 20.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SAG‘INDIKOV BAXITJAN ABDIJANOVICH

**1917-1941-YILLARDAGI QORAQALPOG‘ISTON MADANIYATI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Tar987 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.karsu.uz) hamda "ZiyoNET" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar:

Aytmuratov Jalg'as
tarix fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nurjanov Sabit Uzaqbaevich
tarix fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Xodjametova Gulshiyra Ilishevna
tarix fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "17" X soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, akademik Ch.Abdirov ko'chasi №1. Tel.: (99861)223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (156) raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 230112, Nukus shahri, akademik Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99361) 223-60-49; Faks: (361) 223-60-49.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "04" X kuni tarqatildi.
(2023 yil "04" X dagi 5 -raqamli reestr bayonnomasi)




R.B. Balliyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor


H.M. Otegenov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent


B.A. Koshanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati: Bugungi kunda yuz berayotgan murakkab globallashuv jarayoni davrida turli xalq, millat va elatlar madaniyatida milliy o'zlikni saqlab qolish, kelajak avlodlar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish zarurati o'ta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan milliy, an'anaviy hamda diniy qadriyatlarni ulug'lash borasida amalga oshirilayotgan dasturlar doirasida tarixni o'rganilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Haqiqatan ham, qizil imperiya mustabid tuzumining olib borgan islohotlari mohiyatan milliy qadriyatlar, xalqning ma'naviyati va ijtimoiy holatiga ta'siri atroflicha tadqiqotlarni taqozo qilmoqda.

Dunyoda sobiq sovetlar davri tarixining murakkab voqealarini tahlil qilish, ushbu davrda sodir bo'lgan voqea-hodisalar obyektiv ilmiy baho berish, xolislik va obyektivlik tamoyillariga amal qilgan holda konseptual masalalarga munosabat bildirish bo'yicha tarix ilmiga qaratilgan ilmiy izlanishlar davom ettirilmoqda. Shuningdek, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda mustamlaka sharoitda hukmronlik qilgan bolsheviklar mafkurasining diniy, ma'naviy va milliy merosga bo'lgan salbiy ta'siri asoratlarini bartaraf qilishga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda jamiyat rivojining ma'naviy va madaniy yo'nilishlarida fan va ta'lim sohalarining rolini oshiris uchun samarali islohotlar amal oshirilmoqda. Ayniqsa, tarixiy merosni avaylab asrash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zero, "Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir"¹. Bu borada sobiq sovet davrida hukmron mafkuraning madaniy inqilob islohotlarini amalga oshirishda xalqning milliy urf-odatlarini, ma'naviy va diniy qadriyatlariga munosabatlari, kadrlar tayyorlash, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalarini siyosiyashtirish jarayonidagi muammolar va yo'qotishlarni arxiv manbalari asosida tahlil qilish tarix fani oldidagi dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi², farmonlari, 2018-yil 26-avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 8-maydagi PQ-291-son "Qoraqalpog'iston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 9-dekabrda PQ-36-son³ "Madaniyat va san'atni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий таракқиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-жилд. 29-б.

² <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5765882>.

28-sentabrda 545-son “2022-2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikaning fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi: dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika institutida “Qoraqalpog‘iston tarixining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari dasturi doirasida olib borildi.

Muammoning o‘rganilish darajasi: XX asr O‘zbekiston madaniyati tarixi bo‘yicha ilmiy ishlar D.A.Alimova, N.A.Mustafayevalar tomonidan yoritildi⁴. Shuningdek, xalqimizning XX asr madaniyati, ilm-u fani, ta‘limi, adabiyoti hamda san‘atining tarixidagi yangi metodologik yondashuvlari tarixchi olimlar olib borgan tadqiqotlarda o‘z aksini topgan.

Qoraqalpog‘iston tarixchilari U.X.Shalekenov, A.A.Panabergenov, I.K.Qosimbetov A.Sabirov va boshqalarning ishlaridagi tarixshunoslik talqinlari e‘tiborga loyiqdir. R.G.Timasheva, J.A.Orinbaev, B.Shamambetov, B.Zokirov, R.J.Orazbaevalarning ilmiy ishlarida esa xalq ta‘limi, oliy, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi va kadrlar tayyorlash tarixi masalalarini o‘rganish muhim o‘rin egallaydi.

Qoraqalpog‘iston madaniyati tarixida ziyolilarning shakllanishi va takomillashuv tarixi masalalari I.K.Qosimbetov, T.Qutimov, P.Muratova va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Qoraqalpog‘iston xalqi milliy madaniyatining boshqa qardosh xalqlar bilan hamkorlik, o‘zaro munosabatlari, ilm-fan va madaniyatini rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqotlarni talqin etgan M.K.Nurmuxamedov, S.Kamalov, R.Janabaev, M.Tilevmuratov fikrlari e‘tiborga loyiq.

Xullas, mustaqillik davri o‘lka madaniyati tarixi tarxshunosligi bo‘yicha bir qator olimlarning asarlari maydonga kelgan.

Tadqiqot maqsadi: 1917-1941-yillarida Qoraqalpog‘iston xalqi madaniyatiga kommunistik mafkura ta‘sirining izlari va uning oqibatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- mustabid tuzumning din va ma‘naviy madaniyatga munosabatini yoritish;
- mustabid tuzumning siyosati ta‘sirida zamonaviy ta‘lim tizimiga o‘tish muammolarini ko‘rsatib berish;
- 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘istonda ta‘lim sohasi bo‘yicha kadrlarni qayta

⁴ Mavzu bo‘yicha adabiyotlarning batafsil va to‘liq tahlili birinchi bobda amalga oshiriladi.

tayyorlash va ularning faoliyatini takomillashtirish masalalarini tahlil qilish;

- Qoraqalpog‘istonda istiqomat qiluvchi aholi madaniyatining siyosiylashuv jarayoni ta’siri doirasidagi madaniy-ma’rifiy ishlarini tarixiy va arxiv manbalari asosida yoritish;

- Qoraqalpog‘istonda matbuot va ommaviy axborot vositalari holati va rivojlanish muammolarini ochib berish;

- mustabid tuzum siyosatining adabiyot va san’at ziyolilari ijodiyotiga ta’sirini yangi arxiv manbalari asosida atroflicha yoritish;

- tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston madaniyati, uning holatidagi o‘zgarishlar tarixi belgilandi.

Tadqiqot predmetini 1917-1941-yillardagi mustabid tuzum siyosati “madaniy inqilob” ta’sirida Qoraqalpog‘iston madaniyatining rivojlanishi eski mafkuraning, din va ma’naviy-madaniy munosabatlarning oqibatlari, yangi kommunistik mafkura, milliy madaniyat bilan kurashi, olib borilgan ma’muriy-siyosiy buyruqbozlik tizimining jamiyat ma’rifiy-ma’naviy hayotiga salbiy ta’siri, sovetlashtirish siyosati jarayonidagi voqeliklar kabi masalalar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari: dissertatsiyada tarixiylik va obyektivlik, qiyosiy, qiyosiy-huquqiy, tizimli mantiqiy, statistik tahlil, tizimli yondashuv kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- sovet mustabid tuzumi tomonidan Qoraqalpog‘istonda amalga oshirilgan ishlar mohiyatiga ko‘ra, milliy qadriyatlar, qoraqalpoq xalqining tabiatiga xos bo‘lgan evolyutsion taraqqiyot qonuniyatlarini tubdan o‘zgartirish, uni o‘zining madaniy negizlaridan begonalashtirish, xalq ma’naviy hayotini ham tarkiban, ham mazmunan qayta qurish asosida yuz berganligi natijasida xalqning ijtimoiy-ruhiy holatiga katta zarar yetkazilganligi ochib berilgan;

- 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston madaniyati tarixi mustabid sovet tuzumiga xos bo‘lgan mafkuraviy tazyiqlar – Qoraqalpog‘istonda olib borilgan madaniy jarayonlar taraqqiyotida “madaniy inqilob” mafkurasining oqibatlari diniy va ma’naviy madaniyat munosabatlari doirasida eski mafkuraning yangi kommunistik mafkura bilan kurashi asosida aniqlangan;

- milliy madaniyatga ma’muriy-siyosiy buyruqbozlik tizimining salbiy ta’siri, jamiyat ma’naviy hayotida sovetlashtirish jarayonidagi sovet hukumatining milliy madaniyatlar rivoji to‘g‘risidagi shiorlari o‘zining ijtimoiy-siyosiy zaminini mustahkamlashdan boshqa narsa emasligi dalillangan;

- Qoraqalpog‘istondagi aksariyat kutubxonalar xalqning madaniy hayotida ularning savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lsa ham xalqning ko‘p asrlik ma’naviy xazinasi bo‘lgan arab tilida yozilgan kitoblarni eskilik qoldiqlari sifatida kutubxona fondlaridan olib tashlanib, uning o‘rniga sovet hokimiyati talabiga ko‘ra rus va jahon adabiyoti kitoblari bilan to‘ldirilishi qoraqalpoqlarning asriy an’analaridan begonalashuviga olib kelganligi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi: dissertatsiyada O‘zbekiston tarixiga

oid ilg'or yondashuv va uslublardan foydalanilgan, har xil tarixiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar aks etgan adabiyotlardan, arxiv manbalaridan foydalanilgan, qilingan xulosalar, taklif va tavsiyalar amaliyotga tatbiq etilgan va natijalar tegishli vakolat doirasidagi organlardan tasdiqlanganligi bilan isbotlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati: tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, 1917-1941-yillardagi mustabid tuzumning siyosati ta'sirida Qoraqalpog'iston madaniyatining rivojlanishi, "madaniy inqilob" oqibatlari, milliy madaniyatga qilingan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining salbiy ta'siri, jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy turmushida sovetlashtirish siyosati oqibatlari bo'yicha bugungi qarashlar va nazariyalarni yanada takomillashtirish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada keltirilgan dalillar, ilmiy umumlashmalar, taklif va xulosalar respublika oliy ta'lim muassasalarida tarix fani bo'yicha mutaxassislar tayyorlash uchun "Madaniyatshunoslik", "Fan va texnika tarixi", "Jurnalistika tarixi", "Manbashunoslik", "Tarixnavislik" kabi fanlari bo'yicha darslik hamda o'quv qo'llanmalar tayyorlash, shuningdek, 1917-1941-yillarda mustabid tuzumning siyosati ta'sirida Qoraqalpog'iston madaniyatining rivojlanishi bo'yicha maxsus kurslarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: mustabid tuzumning ma'muriy-buyruqbozlik siyosati davrida Qoraqalpog'iston madaniyati tarixini o'rganish asosida ishlab chiqilgan xulosalar va amaliy tavsiyalar asosida ishlab chiqilgan:

- sovet mustabid tuzumi tomonidan Qoraqalpog'istonda amalga oshirilgan ishlar mohiyatiga ko'ra, milliy qadriyatlar qoraqalpoq xalqining tabiatiga xos bo'lgan evolyutsion taraqqiyot qonuniyatlarini tubdan o'zgartirish, uni o'zining madaniy negizlaridan begonalashtirgan holda, xalq ma'naviy hayotini ham tarkiban, ham mazmunan qayta qurish asosida yuz berganligi natijasida xalqning ijtimoiy-ruhiy holatiga katta zarar yetkazilganligiga oid natijalaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat teleradiokompaniyasi ijodiy jamoasi tomonidan tayyorlangan "Tariximizni o'rganamiz", "Adabiyot va zamon", "Ta'lim va islohot" teleko'rsatuvlari va radio eshittirishlarni tayyorlashda foydalaniladi. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 11-noyabrdagi №05-22/655-sonli ma'lumotnoma). Natijada teletomashbinlar yaqin o'tmishdagi o'lka madaniyati ahvoli, madaniy – jarayonlar, g'oyaviy kurashlar to'g'risida ma'lumotlar oladi.

Qoraqalpog'istondagi aksariyat kutubxonalar xalqning madaniy hayotida ularning savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lsa ham xalqning ko'p asrlik ma'naviy xazinasini bo'lgan arab tilida yozilgan kitoblarni eskilik qoldiqlari sifatida kutubxona fondlaridan olib tashlanib, uning o'rniga sovet hokimiyati talabiga ko'ra rus va jahon adabiyoti kitoblari bilan to'ldirilishi qoraqalpoqlarning asriy an'analaridan begonalashuviga olib kelganligi bo'yicha natijalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi Davlat tarix va madaniyat muzeyi fondlarida saqlanayotgan nodir nashrlar va qo'lyozmalar ekspozitsiyasini tashkil etishda foydalanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2022-yil 1-

noyabrdagi №2-02/1454-sonli dalolatnomasi). Natijada muzeyga tashrif buyuruvchilarning 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston aholisi madaniyati, tafakkuri, mentaliteti va bilimi to‘g‘risidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilgan.

Qoraqalpog‘istonda mustabid tuzumning mustahkamlanishi davrida siyosiy mafkura xalq ma’naviyatidagi barcha milliylikni, qadriyatlarni eskilik qoldiqlari sifatida cheklashga qanchalik urunmasin ijodiy xalq madaniyati va sa’nati namunalarining o‘ziga xosligini saqlab qolganligiga oid xulosalardan O‘zbekiston san’at va madaniyat instituti Nukus filiali Ilmiy bo‘limi tashkil qilgan Amet Tarixov tavalludining 100 yillik yubileyiga bag‘ishlangan anjumanda ko‘rgazma dasturlar tayyorlashda foydalanilgan. (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2023-yil 13-apreldagi №2-01/489-sonli dalolatnomasi). Natijada 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston davlat madaniyat arboblari to‘g‘risidagi ko‘rgazmali vositalarni mazmunan boytishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari aprobatsiyasi: tadqiqot natijalari 8 ta respublika va xalqaro konferensiyalar, seminarlar, forumlar, xususan, 2 ta xalqaro konferensiyalar, 6 ta respublika ilmiy-amaliy, nazariy konferensiya va seminarlarda aprobatsiyadan o‘tdi.

Tadqiqot natijalarini e‘lon qilinganligi: dissertatsiya mavzusi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy yutuqlarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola chop etilgan, jumladan, 4 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: tadqiqot kirish, uch bob, xulosa foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 167 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida disertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoaning o‘rganilganlik darajasi oshib berilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, ilmiy yangiligi, hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

“Tadqiqotning manbashunosligi va tarixshunosligi” – deb nomlangan birinchi bobida 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog‘iston madaniyatini o‘rganish bo‘yicha mavzuning nazariy asoslari, tarixiy manbalari sovet davri tarixnavisligi, mustaqillik davri tarixnavisligi va xorijiy tarixnavislik manbalari tadqiq qilinadi.

“Mavzuning nazariy asoslari va manbalar tahlili” – nomli birinchi paragrafida tadqiqot mavzusining nazariy asoslari va tarixiy manbalari turkumlarga ajratilib tahlil qilinadi.

Mavzuning manbashunosligini tadqiq etishda to‘plangan keng ko‘lamli tarixiy manbalarni turiga ko‘ra turkumlash maqsadga muvofiqdir.

1. Arxiv hujjatlari materiallari;
2. Matbuotda aks etgan ma'lumotlar (gazeta va jurnallar);
3. Esdalik va xotiralar.

Darhaqiqat, dissertatsiya mavzusi yuzasidan eng ko'p materiallar arxivlardan joy olgan birlamchi ma'lumotlar sanaladi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi hujjatlarining 17-fondi, 34-fondi, 58-fondi, 94-fondi, I 296-fondi 837-fondi, 2653-fondlarida 1917-1941-yillarda Turkiston ASSR Markaziy ijroiyo qo'mitasi Amudaryo viloyatining madaniyat sohalariga oid materiallar, qabul qilingan qarorlar va buyruqlar aks ettirilgan.

Darhaqiqat, hududiy boshqarmalar, jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy Davlat arxivi materiallari 1-fondidagi materiallar dissertatsiya ishi yuzasidan o'rganilib ilmiy muomalaga tortilgan. Mavzuga bevosita bog'liq ma'lumotlar 12-fon, 26-fon, 173-fond, 188-fond, 322-fond, 323-fond, 353-fondlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot yuzasidan manbalarni tahlil etish jarayonida davlat va fan arboblari hamda sohada faoliyat olib borgan fidoiy insonlarni xotira va esdaliklari haqida so'z ketganda birinchi navbatda akademik S.K.Kamalovning xotiralarini qayd etish zarur⁵. Qoraqalpoq xalqining ko'zga ko'ringan davlat arbobi A.Dosnazarov faoliyati ham avlodlar xotirasida qayta tiklandi⁶. Shuningdek, Q.Awezov, P.Seytov, K.Nurmuxamedov, Q.Ayimbetov, N.Dawqaraev, S.Majitov va boshqalar to'g'risida yozilgan xotira hamda esdaliklar dissertatsiya mavzusini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qilgani⁷ ko'rsatilgan.

“Qoraqalpog'iston madaniyatining tarixnavisligi” – nomli ikkinchi paragrafida adabiyotlar tahlili taqdim etiladi. 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog'iston madaniyati bo'yicha tadqiqotlarni davriy nuqtai-nazardan uch guruhga bo'lib o'rganilgan:

1. 1917-1991-yillardagi tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarda olib borilgan izlanishlar;
3. Mavzu bo'yicha xorijiy olimlarning e'lon qilgan ishlari.

Qoraqalpog'iston madaniyati ahvolini davlat rahbarlari A.Dosnazarov Q.Awezov va P.Varlamovlar ishlarida madaniyat sohasidgi siyosiy natijalarini bayon qilinadi⁸.

Qoraqalpog'iston xalqlari madaniyatini o'rganishda, xususan, XX asrning birinchi yarmida madaniyatidagi o'zgarishlarni tadqiq qilishga Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasining a'zolari ulkan hissa qo'shgan. T.A.Jdanko

⁵ Kamalov S.K. O'mirim sabaqdaraynan (Eске tусириулеринен). – Nөkis: Илим, 2019 .

⁶ Алланиязов Б. Аллаяр бас болды қарақалпаққа. (Аллаяр Досназаровтың өмир жолынан). – Nөkis: Қарақалпақстан 1996. Байниязов Қ. Аллаяр Досназаров (Илимий-биографиялық очерк). – Nөkis: Қарақалпақстан 1987.

⁷ Қасым Әўезов шығармалары хэм аўдармалары. – Nөkis: Қарақалпақстан 1967; Халмуратов А. Ел ағасының екінши өмири. (Пиржан Сейтов ҳаққында). – Nөkis: Карақалпақстан, 2005; Нуржанов С.У., Есбергенев Х. Сын Отечества (О деятельности Коптилеу Нурмухамедова). – Нукус, Илим, 2018; Айымбетов Қ. Өткен күнлерден елеслер. – Nөkis: Қарақалпақстан 2008; Академик Марат Нурмухамедов (Прыжок). – Ташкент: Фан, 2020; Нәжим Дәўқараев шығармаларының толық жыйнағы т. I. – Nөkis: Қарақалпақстан, 1970; Сейфулғабит Мәжйитов шығармалары. – Nөkis: Қарақалпақстан 1992.

⁸ Аwezov K., Varlamov P. Карақалпақстан к десятилетию Казахстана. – Алма-Ата 1930; Досназаров А.К. Десятилетию Карақалпақской АССР // Революционный Восток, 1934, №6. 173-180-бб.

qoraqalpoq xalqining hayoti va madaniyati to'g'risida qisqacha, ammo yalit tasavvurga ega bo'lishga imkon berganini⁹ ko'rsatadi. Usha ekspeditsiyasi qatnashchisi U.X.Shalekenov to'plagan dala va arxiv materiallarida xalq ta'limining ahvoli, savodsizlikni bartaraf etish muammolari, xotin-qizlar masalasini hal etish, sovet maktabining yaratilishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qiligan¹⁰. O'sha davrda hukmronlik qilgan "feodalizmdan sotsializmga sakrash" nazariyasi asosida yoritilgan monografiyalarida S.U.Tatibaev ham xalqimizning yutuqlari qatorida madaniyatdagi yuz berayotgan jarayonlarni bayon qilgani¹¹ ta'kidlanadi.

Tarixiy-partiyaviy fan nuqtai nazaridan Qoraqalpog'iston madaniyati masalalari A.A.Panabergenovning¹² tadqiqot obektiga aylanagi bayon qilinadi. Savodsizlikni bartaraf etish, sovet maktab ta'limi, ma'rifat va ma'naviyat, ziyolilar, maxsus o'rta va oliy ta'lim, fan, adabiyot, san'at sohalarida kadrlar tayyorlash masalalari I.K.Qosimbetov monografiyasida o'sha zamon talabi asosida batafsil yoritilib berilgan¹³.

Xalq ta'limi tarixini o'rganishga bag'ishlangan ishlar orasida J.Urinbaevning monografiyalarida¹⁴ aholining savodsizligini bartaraf etish hamda qoraqalpoq maktablarining vujudga kelishi va rivojlanish tarixi bayon qilingan. 1970-1985-yillarda J.Ubbiniyazov, S.K.Kamalov, V.X.Tatibaeva, I.K.Qosimbetov, R.Qosbergenovlarining¹⁵ kitob va maqolalarida Qoraqalpog'istonda aholining savodsizligini tugatish, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ittifoq respublikalarining yordami ko'rsatilgan.

Xorazm va Qoraqalpog'istonda madaniy jarayonlar A.Sabirov tomonidan yoritilgani¹⁶ bayon qilinadi. S.K.Kamolov va V.V.Germanovalar kitobida

⁹ Жданко Т.А. Быт колхозников переселенцев на вновь освоенных землях древнего орошения Каракалпакии // Труды Хорезмской экспедиции. – М., 1958. т. III. 705-760-бб; Ўша муаллиф. Быт колхозников рыболовецких артелей на островах Южного Арала // Советская этнография. 1961. №5. 27-43-бб.

¹⁰ Шалекенов У.Х. Развитие каракалпакской культуры за годы Советской власти. – Нукус, 1957; Ўша муаллиф. К вопросу формирования социалистической нации. – Нукус, 1958; Ўша муаллиф. Очерки по истории культуры Советской Каракалпакии (1917-1940). – Нукус: Каракалпакстан, 1960.

¹¹ Татыбаев С.У. Образование и развитие ККАССР в 1932-1937 гг. Тарих фанлари номзоди дисс. автореф. Ташкент, 1959; Ўша муаллиф. Преобразование Каракалпакской автономной области в ККАССР. – Нукус, 1959; Ўша муаллиф. Исторический опыт построения социализма в Каракалпакии. 1917-1941 гг. – Нукус: Каракалпакстан, 1971.

¹² Панабергенев А.А. Культурное строительство в Каракалпакии в первые годы Советской власти // Труды Каракалпакского госпединститута. – Нукус, 1964. вып. 2. С. 96-113; Ўша муаллиф. Партийная организация Каракалпакии в борьбе за осуществление культурной революции (1917-1941 гг.). – Нукус-Самарканд: Каракалпакстан, 1969.

¹³ Косымбетов И.К. По пути, начертанному Коммунистической партией. Задачи культурной революции во второй ленинской Программе Коммунистической партии и их осуществление в Каракалпакской АССР в 1919-1941 гг. – Нукус: Каракалпакстан, 1976.

¹⁴ Урумбаев Ж.А. Очерки по истории народного образования в Каракалпакии. – Нукус: Каракалпакстан, 1959; Ўша муаллиф. История советской школы Каракалпакии (1917-1930 гг.). – Нукус-Куйбышев: Каракалпакстан 1966.

¹⁵ Уббиниязов Дж. Чтобы залечить тяжкую рану Поволжья. Как завязывались интернациональные связи советских народов // Вестник КК ФАН УзССР. 1971. №4. 55-58-бб; Камалов С.К. О дружбе народов Каракалпакии и Хорезма // Вестник ККФАН УзССР. 1970. №3. 45-49-бб; Татыбаева В.Х., Германова В.В. Братская помощь Советской России в строительстве г. Нукуса - новой столицы ККАССР // Вестник ККФАН УзССР. 1982. №4. 61-63-бб;

¹⁶ Сабиров А. Развитие советской культуры народов низовьев Амударьи 1928-1940 гг. – Нукус: Каракалпакстан, 1984.

1930-1936-yillardagi madaniy jarayon tarixi haqida juda katta faktik materiallar mavjudligi¹⁷ bayon qilinadi. I.K.Qosimbetov, P.Muratova, R.J.Orazbaevalarning monografiyalari qoraqalpoq ziyolilarining shakllanishi xususiyatlariga bag'ishlanadi¹⁸.

Qoraqalpog'iston davlat arboblarning qatag'onga uchraganliklari aytilmagan holda, ularning faoliyati haqida ommabop kitoblar nashr etila boshlandi¹⁹. Bu davrdagi monografiyalar va ilmiy tadqiqotlarda madaniyatga oid yangiliklar va yutuqlar faqat bolsheviklar partiyasining yutug'i sifatida bir tamonlama aks ettirilgan.

Mustaqillik davrida Qoraqalpog'iston madaniyatini o'rganilishi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Mamlakatda yuz bergan mustabid tuzumning qulashi, milliy mustaqillikka erishish kabi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar butun O'zbekiston va Qoraqalpog'iston tarix fanida ilmiy paradigmalar vektorini o'zgartirdi.

S.K.Kamalovning Qoraqalpog'istonning davlat va madaniy qurilishi tarixi va yangi tarixiga bag'ishlangan kitoblari va maqolalari katta nazariy, uslubiy va faktik ahamiyatga ega²⁰. S.U.Nurjanovning tadqiqot ishlarida²¹ Qoraqalpoq avtonom viloyatida madaniy qurilish tarixi, 1924-195-yillarda Qoraqalpog'istonda davriy matbuotning shakllanishi va rivojlanish tarixi, yangi hukumat tomonidan alifboni lotinlashtirish joriy etilgani, kechki kurslar tashkil etilgani, 1929-yildan boshlab yangi qoraqalpoq alifbo va darsliklarning yaratilishi haqidagi masalalar tadqiq qilingan.

A.M.Djumashev Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixini yangi arxiv hujjatlari asosida qayta yaratdi²². 1924-1941-yillarda Qoraqalpog'istonda sovet davlat boshqaruvi tizimini ilmiy tahlil qilish natijasida Qoraqalpog'istonda sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarning qonuniyatlari va o'ziga xosligi aniqlandi.

¹⁷ Камалов С.К., Германова В.В. Москва-Каракалпакстан. История шефства Дзержинского района столицы над автономной республикой. Историко-публицистический очерк. – Нукус: Каракалпакстан, 1986.

¹⁸ Косымбетов И.К. Каракалпак совет интеллигенциясы тарийхынан.- Нөкис: Каракалпакстан, 1970; Муратова П. Подготовка кадров советской интеллигенции в Каракалпакии в 1928-1941 гг. Тарих фанлари номзоди дисс. автореф. – Ташкент, 1971; Уразбаева Р.Дж. Возникновение и развитие высшего и среднего специального образования в советской Каракалпакии (1924-1980 гг.). Тарих фанлари номзоди дисс. автореф. – Ташкент, 1984.

¹⁹ Елмуратов Ы. Нәжим Даўқараев. Илимий-библиографиялык очерк. – Нөкис: Каракалпакстан, 1965; Есбергенов Х. Көптилеў Нурмухамедов. – Нөкис: Каракалпакстан, 1974 ж. Алланиязов Б. Шункар (Аллаяр Досназаров) // Гулистан. 1974 г. №2.

²⁰ Камалов С.К. Каракалпаклардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм онын мәмлекетлигинин тарийхынан. – Нөкис: 2001.

²¹ Нуржанов С.У. Каракалпакская автономная область: история и источники (1925-1932 гг.). Тарих фанлари номзоди ... автореф. – Нукус. 1998; Ўша муаллиф. Периодическая печать Каракалпакстана в системе общественных отношений. – Нукус: Илим. 2015; Ўша муаллиф. Власть и каракалпакское общество: анализ факторов взаимоотношений // Вестник ККО АН РУз. – Нукус, 2001. №1. 89-92-бб.

²² Джумашев А.М. История Каракалпакстана в правительственных документах (1932-1941 гг.). Тарих фанлари номзоди дисс. автореф. – Нукус. 1996 г; Ўша муаллиф. Советская система государственного управления в Каракалпакстане (1924-1941 гг.): история формирования и трансформации. – Нукус: Илим, 2021; Ўша муаллиф. Казахстан и Каракалпакстан: проблемы взаимоотношений // Россия и Казахстан: проблемы истории (XX – начало XXI века). – Москва, 2006. 133-158-бб.

Mustaqillik davrida bir guruh tadqiqotchilar Qoraqalpog‘istondagi qatag‘on jarayonlarini o‘rgandilar, ular ichida madaniyat arboblari ham bor²³. Qoraqalpog‘istonning XX asr tarixi bo‘yicha zamonaviy tarixnavislikni boyitgan professor B.A.Qoshanovning²⁴ ta’kidlashicha, rasmiylar arab alifbosini qoloq, o‘rta asr, diniy va musulmoniy narsalar timsoli deb bilishgan.

Tarix fanlari doktori Ya.A.Abdullaevaning tadqiqot ishlarida Qoraqalpog‘istonda ayollar orasida savodsizlikni bartaraf etish, ularni maktablarga siyosiy va jamoatchilik arenasiga jalb etish masalalari tahlil qilinadi²⁵. Tarix fanlari doktori M.Q.Saribaev Qoraqalpog‘istonda paxta yakkahokimligining vujudga kelishi va sovet tuzumi siyosiy hukumronligi tarixini o‘rganar ekan, tabiiyki, bu kompaniyaning ta’lim, madaniyat va ilm-fanning rivojlanishiga salbiy ta’siri tahlil qilinadi²⁶.

Qoraqalpog‘iston xalq ta’limi tarixini o‘rgangan R.J.Orazbaevaning asarlaridagi²⁷ Qoraqalpog‘istonda xalq ta’limning tuzilishi, pedagogik kollej va institutlarning malakali kadrlarni tayyorlashdagi faoliyati, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari faoliyati va 30 yillardagi “katta terror”ning milliy kadrlarga bo‘lgan qatag‘onlik ta’siri haqidagi masalalar tahlil qilinadi.

Sovet hukumatining Qoraqalpog‘istondagi kadrlar siyosati, “madaniyat inqilob”, nomenklatura mexanizmi R.J.Bazarbaev²⁸ tomonidan o‘rganilgan. Muallif partiyani tozalash totalitar tuzumning repressiv siyosatining ajralmas qismi bo‘lganligini, kommunistik mafkura sanoat va qishloq xo‘jaligi kadrlarini maqsadli va tizimli tayyorlash uchun asos bo‘lganini ta’kidlaydi.

M.A.Qarlibaevning tadqiqot ishlarida²⁹ Qoraqalpog‘iston tarixnavisligida ilk bor qoraqalpoqlar o‘rtasida islom madaniyatini targ‘ibod qilish va mustahkamlashda kitob merosining o‘rni, islomning qoraqalpoq xalqi

²³ Бабашев Ш. Б. Қарақалпақстан Республикасы тарийхындағы сиясий қурбанлар (Тарийхымыздың жазылмаған бетлери). – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2003; Ўша муаллиф. Жазықсыз жазаланған репрессия қурбанлары (Естелик китабы архив дереклеринде). – Нөкіс: Қарақалпақстан 2007.

²⁴ Кошанов Б.А., Асеметдинов М. Қарақалпақстан журналистлери репрессия жылларында. – Нөкіс, 2009 Кошанов Б.А. Қарақалпақстан тарийхнамасы. – Нөкіс, 2016; Кошанов Б.А., Отегенов Х.М. Очерки истории Каракалпақстана. 1916-1991. – Нукус, 2021; Кошанов Б.А., Изимбетова Г.Т., Зинатдинов Н.М. Политика советской власти в отношении мусульманского духовенства в Каракалпақстане (1917-1941 гг.). – Нукус, 2021.

²⁵ Абдуллаева Я.А. Қарақалпақистон хотин-қизлари: кеча ва бугун. XIX асрнинг охири ва XX аср. – Тошкент, 2004; Ўша муаллиф. Женский вопрос в Каракалпақстане в конце XIX-XX вв. (социально-политический аспект). Тарих фанлари доктори ... автореф. – Ташкент, 2005; Ўша муаллиф. Қарақалпақистон хотин-қизлари масаласи тарихшунослиги (XIX асрнинг сўнгги чорагидан – XXI асргача). – Нукус: Қарақалпақстан, 2017.

²⁶ Сарыбаев М.К. Из истории хлопководства Каракалпақстана в конце XIX - начале XX века. – Ташкент, 2006; Ўша муаллиф. Политика хлопковой монокультуры Советской власти в Каракалпақстане и ее последствия (1917-1990 гг.). – Ташкент, 2008.

²⁷ Уразбаева Р.Дж. Из истории высшего и среднего специального образования в Каракалпақстане. – Нукус: Каракалпақстан, 1994; Ўша муаллиф. История образования в Каракалпақстане (последняя четверть XIX – начало XXI вв.). – Ташкент: Янги ижод, 2011.

²⁸ Базарбаев Р.Дж. История кадровой политики Советской власти Каракалпақстане. – Нукус: Билим, 2012; Ўша муаллиф. Тоталитарный режим и духовность каракалпақского народа // Естественно-гуманитарные науки и их роль в подготовке инженерных кадров: Сборник материалов II международной научно-практической конференции. – Алматы (Казахстан), 2004 г. 170-171-бб.

²⁹ Карлыбаев М.А. К истории ислама у каракалпаков: исторические, социальные, этнические и генеалогические контексты. – Нукус: Илим 2021; Ўша муаллиф. Медресе в Каракалпакии в XIX – начала XX вв. – Нукус: Билим, 2002; Ўша муаллиф. О книжном наследии Каракалпақстана XIX – начала XX вв. // O‘zbekiston tarixi. – Ташкент, 2020, № 3. 102–113-бб.

madaniyatining bir qismi va jamiyat hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan faol ijtimoiy kuch sifatidagi xususiyatlarini aniqlash masalalari tahlil qilinadi.

1917-1941-yillarda Qoraqalpoq musiqa san'ati va aloqalari bo'yicha P.P.Palwaniyazovning³⁰ "Qoraqalpoq musiqa san'ati tarixi" nomli avtoreferati, va tadqiqotchi N.Nurullaevning³¹ "Qoraqalpog'iston va Xorazm viloyatining madaniy aloqalari" nomli avtoreferatlari tahlil qilinadi.

Qoraqalpog'iston milliy matbuotining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixi haqidagi O.Yusupov³² va Q.Bayniyazovlarning³³ maqolalari muhim ahamiyatga ega. 2000-yillarda kutubxonalarning shakllanishi va rivojlanishi A.R.Qudiyarov, S.S.Saymanov materiallarida yoritilgan³⁴. R.B.Idrisovning ilmiy ishlarida³⁵ sovet hukumatining poligrafiya sanoati va kitob matbaasini rivojlantirish borasidagi faoliyatining maqsadi va xarakteriga baho berilib, mafkuraning jamiyatta madaniy hayotiga ta'siri kuzatiladi. Qoraqalpog'iston madaniyat arboblarning nashr qilingan xotiralar³⁶ ushbu mavzu bo'yicha qimmatli manba sifatida foydalanildi.

Uchinchi guruhga kiradigan 1917-1941-yillardagi Qoraqalpog'iston madaniyati tarixini **xorij tadqiqotlarida** o'rganilishi ham e'tiborga molikdir. Qator xorijiy davlatlarda O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalqlari madaniyati muammolari e'tiborda ekanligini ta'kidlash lozim. Lekin ularda Qoraqalpog'iston madaniyatini maxsus o'rganish yo'lga qo'yilmagan, bu mavzuni Markaziy Osiyo va O'zbekiston miqyosida o'rganadi³⁷.

Amerikalik tadqiqotchi J.Shoberleyning³⁸ qayd etishicha, G'arbda Markaziy Osiyo tadqiqotchilari soni 1991-yildagi 400 dan 2007-yilda 3000 tagacha keskin ko'payib bormoqda. Markaziy Osiyodagi (hali Sovet davridagi) etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlarga xorijiy qarashlarga 1987-yilda S.V.Cheshkoning³⁹ maqolasida tahlil qilinadi.

³⁰ Палуаниязов П.П. История музыкальной культуры Каракалпакстана (1925-1950 гг.). Тарих фанлари номзоди ... автореф. – Нукус, 2003.

³¹ Нуруллаева Н. К. Культурные связи Хорезмской области и Каракалпакстана в 1925-2005 гг. Тарих фанлари номзоди ... автореф. – Нукус, 2010; Кошанов Б.А., Нуруллаева Н. Политико-культурные связи Хорезма и Каракалпакстана в 30-40-е годы XX столетия // Илм сарчашмалари. – Урганч, 2009. № 4.38-41-бб.

³² Досымбетов К., Юсупов О. Қарақалпақстан баспа сөзи. (Пайда болыуы хэм раўажланыу тарийхынан). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1991; Юсупов О., Қәлимбетов А. «Қарақалпақстан» баспасына 60 жыл. – Нөкис, Қарақалпақстан, 1993.

³³ Байниязов Қ. Қарақалпақстанда көркем әдебиет журналының пайда болыуы // Әмиўдарья, 1991. №8. 7-8-бб.

³⁴ Қудияров А. Қарақалпақстанда китапханалар тарийхынан. – Нөкис, 2013; Қудияров А.Р., Сайманов С.С. Қарақалпақистон кутубханалари тарихидан // Центральная Азия – 2014. Фан, таълим, маданият ва бизнестин интернет ва ахборот-кутубхона ресурслари. Конференция материаллари. – Тошкент, 2014. 189-196 б.

³⁵ Идрисов Р. Б. Қарақалпақстан баспасы хэм полиграфия тарауы раўажланыу тарийхынан // Город и городская культура в Южном Приаралье: история и перспективы. Приложение к журналу «Вестник» ККО АН РУз. – Нукус, 2017. №3. 78-81-бб; Ўша муаллиф. История книгопечатания Каракалпакстана (историографический аспект) // «Вестник» ККО АН РУз. – Нукус, 2017. № 4. 88-91-бб.

³⁶ Наўрыз Жапаков еске түсириўлер. (Илимий мийнетлери). – Нөкис: Билим, 1990; Қунназаров А. Жети асырым. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2000; Нәжим Дәўқараев. (Еске түсириўлер). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997; Камалов С.К. Өмирим сабақларынан... (Еске түсириўлерим). – Нөкис, Илим 2019.

³⁷ Кошанов Б.А., Джумашев А.М. Зарубежная и отечественная историография истории Туркестана, Хорезма и Каракалпакстана в первой четверти XX века. – Нукус: Каракалпакстан, 1997. – 34-б.

³⁸ Сужиков Б.М. Методологические подходы к изучению истории Центральной Азии XX-го столетия в евро-американской историографии // Очерки по историографии и методологии истории Казахстана. – Алматы, 2007. 197-238-бб.

³⁹ Чешко С. В. Западные советологи о национальных отношениях и этнокультурных процессах в Средней Азии (1970-1980 годы) // Советская этнография. 1987. №3. 142-143-бб.

1995-yilda D.Orlovskiy tahririda chop etilgan “Sovet tadqiqotlari doirasidan tashqarida” to‘plamida M.B.Olkott va G.Stoke⁴⁰ “postsovetshunoslar” uchun “postsovet makonida”gi barcha etnoslar va etnosiyosat variantlarini o‘rganishga nisbatan tilni, madaniyatni, tarixni va bu joyning barcha o‘ziga xos sharoitlarini puxta bilishni imperativ sifatida ilgari surdilar. Sovetshunoslik tizimida O‘rta Osiyodagi islom va diniy siyosatni o‘rganishga muhim o‘rin berildi.

Britaniyalik mustaqil tadqiqotchilar David va Syu Richardsonlarning⁴¹ “Orol dengizi deltasidagi qoraqalpoqlar” nomli qimmatli monografiyasi chop etilgan. Turkiyalik olim Solih Yilmaz⁴² Qoraqalpog‘istonda stajirovka o‘tab, qoraqalpoqlarning yangi tarixiga bag‘ishlangan materiallar to‘pladi va doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi va monografiya chop ettirdi.

“Islom davlati” deb atalmish tuzumning kirib kelish tahdidi oldida qoraqalpoqlar orasida islom dinini targ‘ib qilish borasidagi ishlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, bu Adib Xolid⁴³ kitobi eslatadi. “Muqaddas joylar”ning paydo bo‘lish tarixi va musulmon ruhoniylarining rolini o‘rganish zarur deb ta’kidlaydi.

O‘rganilayotgan mavzu uchun tarixchi olimlarning 1925-1930-yillarda Qoraqalpog‘istonda partiya-davlat tuzilmalarining madaniy siyosati tamoyillari tahlil qilingan so‘nggi monografiyalari katta ahamiyatga ega⁴⁴. Muhojir mualliflar A.G.Avtarxanov, M.Voslenskiy, M.Choqaeov, B.Xayit va boshqalar sovet voqealigining turli tomonlarini, jumladan, madaniyat siyosatini ham tadqiqot qildilar.

Sovetshunoslar X.Arendt, K.Fridrix va Z.Bjezinskiylarning⁴⁵ fikricha Sovet davlatida o‘rnatilgan kommunistik mafkura hokimiyatni qo‘lga olgan bol`sheviklar partiyasi, politsiya nazorati, ommaviy axborot vositalarida qattiy tsenzura, boshqariladigan davlat rejali iqtisodiyot totalitar diktatura modelini ifodalaydi deb ta’kidlaydi. Mashhur sovet tarixchilari R.Payps, R.Konkvest va boshqalar Sovet Ittifoqi tarixini yoritib, O‘rta Osiyoda bolshevistik milliy siyosatini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratgan.

“Qoraqalpog‘istonda mustabid tuzumning shakllanish davridagi madaniyat muammolari (1917-1941 yy.)” nomli 2-bobida mustamlakachilikka asoslangan siyosiy tuzumning harakati bilan Markaziy Osiyoda qizil imperiyaga qaram bo‘lgan milliy respublikalarning shu jumladan Qoraqalpog‘istonda m`naviy madaniyat va ta’lim sohalarining rivojlanishdagi muammolari va echimlari tadqiq qilinadi.

“Mustabid tuzumning din va ma’naviy madaniyatga munosabati” deb nomlangan birinchi paragrafida bolsheviklar partiyasining dinga qarshi

⁴⁰ Stokes G. Framing post-Soviet nationalities studies // Beyond Soviet studies. P. 155.

⁴¹ Richardson David., Richardson Sue. Qaraqalpaqs of the Aral delta. – Prestel Verlag. 2012.

⁴² Salih Yilmaz. Karakalpak Türkləri Ve Karakalpakistan Tarihi. – Ankara. Türk Tarih Kurumu Yayinlari. 2008. P. 534.

⁴³ Khalid Adeeb. Islam after Communism. Religion and Politics in Central Asia. – Berkeley-Los Angeles-London: University of California Press 2007.

⁴⁴ Баймагамбетова Э. Советский концепт национальной политики: вопросы теории и практики осуществления // Отан тарихы. – Алматы, 1999. №3. 23-37-66.; Мендикулова Г. Дискуссия о национальной политике Кремля в Туркестане (Тутцинг, Германия, 1954) // Отан тарихы. – Алматы, 2001. №1. 25-39-66.

⁴⁵ Меньковский В.И. Власть и советское общество в 1930-е годы: англо-американская историография проблемы. www.nature.sai.msu.ru

targ'ibot-tashviqot ishlarida mahalliy millat vakillari ongida ilmiy dunyoqarashini shakllantirish bahonasi bilan ateistik tarbiya shakllantirish uchun kurash harakatini kuchaytirib, xalqning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy madaniyatini butunlay qayta o'zgartirish maqsadini amalga oshirgani bayonlanadi. Sovet hokimiyati o'rnatilishining birinchi kunidan boshlab hokimiyat boshiga kelgan bolsheviklar mahalliy xalqning erki va maqsadlarini tan olmaganligi etirof qilinadi.

Rossiyadagi 1917-yil voqealari Turkiston o'lkasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Oktyabr to'ntarishi natijasida yangi tuzumning paydo bo'lishi unga qaram bo'lgan milliy o'lkalarga "proletar madaniyatini o'rnatishga qaratilgan sinfiy kurash"⁴⁶ me'yorlarini o'rnatdi. Markaziy Osiyoning barcha hududlarida va shu jumladan, Qoraqalpog'istonda mustabid tuzum o'rnatilgandan keyin xalqning milliy va diniy qadriyatlarini kamsitish va hatto, toptash yo'lini tutdi.

Turkiston ASSR Xalq komissarlari Sovetining ko'rsatmasi bilan Amudaryo bo'limi ijroi qo'mitasi 1918-yili 23-mayda cherkovni maktabdan ajratish haqida buyruq berildi va bu ma'lum darajada aholining noroziligini keltirib chiqardi. Inqilobiy qo'mitaga qarshilik ko'rsatganlar qamoqqa olinib quvg'in qilindi⁴⁷.

20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab din vakillari qattiq ta'qib ostiga olinib, ularning aksariyati qatag'on qilindi. Masjidlar yopib qo'yildi. Islom dini xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda va ishlab chiqarishda qatnashishini man etmasada, islom dinini tan olmaslik siyosati olib borildi⁴⁸. Bu esa o'z navbatida mahalliy aholi orasida Sovet hukumatiga nisbatan dushmanlik kayfiyatini kuchaytirdi.

Qoraqalpog'istonda sovet hokimiyatining tiklanishi davomida diniy bilimga ega guruhlarning sovet hukumatining tutgan ta'lim siyosatiga narozilik harakatlari haqida ma'lumot beriladi. Darhaqiqat, Sovet hukumatining 1925-yili "Kurashchan xudosizlar ittifoqi" tashkilotini tashkil etishi⁴⁹ bilan bu tashkilot Ichki ishlar xalq komissarlari boshqarmasi bilan birgalikda diniy ulamolar va eski savodli ziyolilarning ko'pchiligi turli asossiz ayblar bilan aksariyat qismi quvg'in qilindi.

Sovet hukumatining cherkovni davlatdan va maktabni cherkovdan ajratish to'g'risidagi farmonini to'liq amalga oshirish, ya'ni eski ta'lim poydevorlarini yo'q qilish va Qoraqalpog'istonda sovet maktablarining yagona davlat tizimini yaratishga olib keldi. Hukumat xalq orasidagi badavlat odamlarni va eski savodli ruhoniylarni xalq dushmani, deb e'lon qilib, o'larni ommoviy yo'q qilish siyosati xalqmizning genofondiga va ma'naviy ruhiyatiga katta ziyon etkazgan. Xalqning keng ommasi ishtirok etadigan milliy va diniy bayramlari sanalgan Qurban-hayt, Navruz bayramlarini davlatimizga katta moddiy va axloqiy zarar etkaziladi deb xalqning milliy urf-dasturlari, qadriyatlaridan voz keshishga qaratilgan partiya va sovet tashkilotlarining siyosiy ma'rifiy targ'ibot ishlari olib borildi.

⁴⁶ Зезина М. Р., Кошман Л. В., Шульгин В.С. История русской культуры. – Москва: Высшая школа, 1990. 285-б.

⁴⁷ Элеёв Ө. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиуи хәм раўажланыуы. – Нөкис: Билим, 1993. 417-б.

⁴⁸ Абдуллаева Я. Қорақалпоғистон хотин-қизлари: кеча ва бугун XIX асрнинг охири ва XX аср. – Тошкент: Ижод дунёси, 2004. 61-б.

⁴⁹ ҚР МДА 1-фонд, 4-рўйхат, 2444-иш, 40-41-варақлар.

Qoraqalpog‘istonda sovet tuzumini o‘rnatishda islom dini madaniyatiga xos rivojlangan arab yozuvidagi manbalardan foydalanishni man qilish maqsadida yangi lotin alifbosiga o‘tishni maqsad qildi. Mustabid tuzum siyosatining din va ma’naviy madaniyatga tug‘ridan-tug‘ri aralashuvi nafaqat dindorlarni badarg‘a qilish bilan emas, balki sharqning uyg‘onish davrida dunyo tsivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan yozma manbalarimizdan arab yozuvidagi qo‘lyozmalar va kitoblar yoqib yuborilishiga olib keldi.

Qoraqalpoq xalqining din va ma’naviy madaniyatga munosabati mavzusiga doir bajarilgan ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, sotsialistik madaniyatni yaratish maqsadida noqonuniy dekretlarni qabul qilinishi xalqning ommaviy ongini diniy mafkuraviy tushuncha va qadriyatlardan voz kechirib, ma’naviy madaniy, tarixiy meros va qadriyatlaridan judo etishga qaratilgan, bol’sheviklar partiyasining ko‘rsatmasi bilan amalga oshirilgan edi.

“Mustabid tuzum davrida sovet ta’limga o‘tish muammolari” – deb nomlangan ikkinchi paragrafida yangi sovet tuzimiga o‘tish davrida ta’limga qaratilgan choralar bolsheviklar partiyasi siyosati bilan mahalliy aholi o‘rtasidagi ziddiyatli kurashlar asosida amalga oshgani tahlil qilinadi.

XX asrning 20-yillarida umumta’lim tizimining o‘ziga xos jihati shundan iborat ediki ta’lim tizmi to‘liq mafkuraviy-siyosiy maqsadlarga bo‘ysindirildi. Buning uchun sovet mustabid tuzumi ko‘plab “nazariya”lar to‘qib chiqara boshlagani ta’kidlanadi. Xususan, o‘zbek, qoraqalpoq xalqining “oktyabr inqlobi”gacha savodsiz bo‘lganligi to‘g‘risidagi sohta g‘oya keng tarqatildi va targ‘ib etildi. Ammo bu ma’lumotlar mamlakatimiz mustaqilligidan so‘ngi davrda bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiqot qilinib, mahalliy aholi savodliligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarning hech qanaqa tarixiy haqqoniylika to‘g‘ri kelmaydigan, asosiz ekanligi haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Qoraqalpog‘istonda Sovet hokimiyati o‘rnagandan so‘ng diniy ta’lim beruvchi masjid-madrasalar o‘z davrining ilg‘or ma’rifatlarini tayyorlashga o‘z hissasini qo‘shgani haqida manbalar keltiriladi. XX asrning boshlariga qadar Qoraqalpog‘iston hududida 70 ga yaqin madrasalar bo‘lgan. Birgina Amudaryo bo‘limida 1895-yili 58 ta madrasa bo‘lgan⁵⁰, Xiva xonligi tarkibidagi Qoraqalpoq hududida 10 ga yaqin madrasalar faoliyat ko‘rsatgan⁵¹.

Jadidchilik davri o‘zining butun murakkabliklari bilan qoraqalpoq xalqining ma’rifatparvarlik tarixida XIX asr oxiri XX asr boshlarida milliy uyg‘onish davrini boshlab berdi. Chunki bu uyg‘onish davri S.Majitov, A.Musaev, J.Qarataev, A.Bekimbetov, Sidiq Toqpan o‘g‘li, Qazi Mawlik va boshqa ma’rifatchilarni dunyoga keltiradi.

1918-yili 30-iyunidan boshlab Turkston Xalq maorifining Amudaryo bo‘limi tashkil etildi⁵². Ayni paytdan boshlab yangi tuzum ta’lim jarayonida avvalambor diniy masjid-madrasalarda eski bilim berishni tugatish va yangi sovetlik usulidagi ta’lim maktablarini tashkil etishga kirishgani bayon qilinadi.

⁵⁰ ЎР МА. И-269 фонд, 1-йиғма жилд, 83-иш, 6-7 варақлар.

⁵¹ Билялов Г.М. Из истории ликвидации религиозных школ в Хорезме // Вестник ККФАН УзССР, 1979. №1, 42-б

⁵² ҚР МДА 173-фонд, 1-рўхат 22- йиғма жилд, 9-варақ.

Savodsizlikni bartaraf etish va yangi sovet maktablarini tashkil etish uchun kurash tashqi imperialistik intervenciyaga va ichki aksilinqlobiy kuchlarga qarshi fuqoralik urushining avj olgan davrida katta ziddiyatlarga uchragan. Musulmon ruhoniylari savodsizlikni bartaraf etishga va likbez maktablarining ochilishiga qarshilik ko'rsatdi, likbez maktablarida bolalarga, ayniqsa, ayollarga o'qishga borishni taqiqladi⁵³. 1922-yillardagi Qoraqalpog'iston sovet maktablari faoliyati va savodsizlikni bartaraf etish kurslarini tashkil etishning moddiy texnik ta'minot muammolari tahlil qilinadi.

Qoraqalpog'istonda 1935-1936-yillarda maktab sonlarining ko'payishi bilan ularni parta, doska, o'tirg'ichlar va boshqa jihozlar bilan ta'minlanishida muammolar yuzaga keldi. Respublikadagi umumiy ta'lim berish maktablari atiga 25 foizi parta va o'tirg'ishlar bilan ta'minlangan, o'qituvchilarning umumiy tarkibining 85,3 foizi faqat past ma'lumotga ega bo'lgan⁵⁴.

GPU va tuman IIXK bo'limi tomonidan har xil tuhmat va uydirmalar bilan 1937-yilning so'nggi to'rt oy ichida Qo'ng'iro't tumanidan 28 o'qituvchi qamoqqa olingan. Natijada ko'pchilik maktablarda bolalarni o'qitadigan o'qituvchilar topilmay qoldi. Shunday assosiz tuhmatlar bilan Kuybishev tumanidan 11 ta, Xo'jaylidan 27 ta, Taxtako'pirdan 7 ta o'qituvchilar ishdan bo'shatildi⁵⁵.

Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog'istonda sovet ta'limiga o'tish yangi sovet maktablarini tashkil etishda mahalliy aholi orasida eski savodga ega eshon, ulamo, ruxoniylariga qarshi qatog'anlik siyosati avj olgan davrda qarama-qarshiliklarga uchradi. Ya'ni, shu davirning o'ziga xos muammolarini echishga to'g'ri keldi. Bu muammolar yangi tashkil etilgan maktablar uchun binolar, jihozlar, darsliklar va o'quvchilarning jalb qilinishi bilan malakali o'qituvchi kadrlarning etishmovchiligi bilan bog'liq holatlarni keltirib chiqardi.

“Qoraqalpog'istonda ta'lim sohasidagi kadrlarni qayta tayorlash va takomillashtirish masalalari” deb nomlangan uchinchi paragrafida sovet hokimiyati o'rnatilgan davrida Qoraqalpog'istonda dastlabki sovet maktablarini tashkil etish muammolari, o'rta maxsus va oliy o'quv o'rinlarining tashkil etilishi, yangi o'quv o'rinlarining malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash masalalari tadqiq qilinadi.

1919-yili avgustda birinchi sovet maktablari uchun o'qituvchilar tayyorlaydigan kurs tashkil qilinishi, 1920-yili 4-yanvarda 29 ta o'qituvchini Samarqandga tayyorgarlik va qayta tayorlash kursiga yuborilgani, 1921-yilning 1-mayida To'rtkulda 4 oylik o'qituvchilar tayyorlash kursi ochilgani va rus va tatar millati yangi tuzumdagi sovet maktablarini ochishga faol qatnashgani haqida bayon qilinadi. 1921-1922-o'quv yilida To'rtko'lda 32 ta kishidan iborat to'rt oylik o'qituvchilar kursi, 1925-yili To'rtkulda pedagogik texnikumning tashkil etilishi va kadrlar tayyoralaydigan o'rta mahsus o'quv o'rinlarining ochilishi haqida arxiv ma'lumotlar keltiriladi.

⁵³ Базарбаев Р.Дж. История кадровой политики советской власти в Каракалпакстане. Нукус: Билим, 2012. 159-б

⁵⁴ ҚР МДА Р-551-фонд, 1-руйхат, 4315-ийғма жилд, 43 варак

⁵⁵ ҚР МДА 1-фонд, 4-руйхат, 1608-ийғма жилд, 10-варак.

Qoraqalpog‘istonda tashkil etilgan o‘qituvchilarni qayta tayyorlash kurslari kursantlarining milliy tarkibi, mehnat staji va savodlilik darajisini tadqiqotchi J.Urinbaevning tuzgan jadvali asosida tahlil qilinadi.

1927-1928-o‘quv yilida Qoraqalpog‘istonda pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash maqsadida Gomel, Qirim, Saratov, Moskva, Jitomir, Ufa, Voronej, Toshkent va boshqa shaharlardan mutaxassis kadrlar mehnat shartnomasi asosida safarbar qilinadi⁵⁶. 1925-1930-yillari respublikamiz poytaxti To‘rtko‘l shahrida va Xo‘jayli, Chimboy tumanlarida ochilgan dastlabki pedagogika texnikum, Rabfak, pedagogika bilim yurtlari respublikamiz uchun pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va etishtirishga xizmat qilgan.

1934-yili Qoraqalpog‘istonda pedagogik institutning tashkil etilishi fakultetlarning ochilishi va o‘qituvchilar bilan ta‘minlanishi haqida tahlil qilingan. Pedagogik institutning dastlabki o‘qituvchilaridan: N.Dawqaraev, F.D.Kachanov, M.V.Sheglov, O.Bo‘leshev, M.Galikeev, M.A.Muzaffarov, M.A.Saradjev, R.G.Timasheva, S.B.Bulatov, D.B.Bazirov, A.Begimov, T.B.Bekimbetovlar bilim beradi⁵⁷. 1936-1940-yillari institutning siyosiy-ijtimoiy va madaniy sharoitlari tahlil qilinib, malakali kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati, 1937-yildagi qatog‘onlik siyosatining ta‘siri pedagog o‘qituvchilar hayotiga salbiy ta‘sir ko‘rsatganligi aniqlangan.

Qoraqalpog‘istonda mavzuga doir bajarilgan ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki ta‘lim kadrlarini qayta tayyorlashda Chimboy, Xo‘jayli pedagogika bilim yurtlari, To‘rtko‘l shahridagi pedagogika texnikumning tashkil etilishi yuqori va o‘rta mahsus o‘quv o‘rinlariga o‘qituvchilarni tayyorlaydigan Rabfakning tashkil etilishi bilan mahalliy yoshlar tarkibida birinchi pedagog kadrlar tayyorlandi. Qoraqalpog‘istonda Pedagogika institutning ochilishi va uning markaziy shaharlaridan tajribali o‘qituvchilar bilan ta‘minlanishi natijasida katta ilmiy-pedagog markazning maktablarni oliy ma‘lumotga ega pedagog kadrlar bilan ta‘minlashda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

“Sovet “madaniy inqilob” mafkurasi ta‘siridagi Qoraqalpog‘iston madaniyatining rivojlanish muammoalari (1917-1941 yy.)” deb nomlangan 3-bobida Qoraqalpog‘istonda madaniy-ma‘rifiy, matbuot, adabiyot va san‘at sohalarida sovet mustabid tuzumining yakka hukumronligini o‘rnatishda eski tuzum bilan yangi tuzum o‘rtasidagi kurash harakatlari va muammolari tahlil qilingan. Qoraqalpog‘istonda madaniy-ma‘rifiy ishlarni amalga oshirishda madaniy-ma‘rifiy, ilmiy, matbuot, adabiyot va san‘at tashkilotlarini tashkil etish bilan ular faoliyati natijalari yangi tizimli mafkuraning “madaniy inqilob”ni o‘rnatishning siyosiy maqsadlariga bo‘ysindirilib chora-tadbirlari belgilandi.

“Qoraqalpog‘iston madaniyatining siyosiylashuv jarayoni ta‘siridagi madaniy-ma‘rifiy ishlari” deb nomlangan birinchi paragrafida sovet tuzumining Qoraqalpog‘istonda proletar madaniyatini shakllanitirishda partiyaning targ‘ibot-tashviqot markazlari, tashkilotlarini tashkillashtirib, xalq ommasini siyosiy g‘oyaviy tarbiyalash masalalari tahlil qilinadi. 20-yillarda “qizil karvon”,

⁵⁶ Муратова П. Каракалпакстанда интеллигенция кадрларын таярлау. – Нөкис: Каракалпакстан, 1992. 41-б.

⁵⁷ 40 лет Каракалпакскому Государственному педагогическому институту. – Нукус: Каракалпакстан, 1975. 9-б.

“qizil arba”, “qizil uy”, “dehqonlar uyi”lari targ‘ibot-tashviqot tashkilotlarining tuzilishi, asosiy vazifalari va ularga keng xalq qatlamlarini jalb qilish muammolari bayon qilinadi.

1920-1921-yillari Amudaryo sohilidagi aholi punktlarida gazetalari, kitoblari, kino qurilmalari bor “Qizil barjalar” muntazam ishlab turdi⁵⁸, shahar va qishloqlarida qizil askarlar bilan birga “qizil arbalar”, “qizil karvonlar” madaniy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini olib bordi. 1921-1922-yillarda “Qoshchi Ittifoqi” tashkil etilishi, uning tarkibi, vazifalari, faoliyati davomida amalga oshirgan ishlari tadqiq etilgan.

Kutubxonalar xalqning madaniy hayotida ularning savodxonligini oshirishda ahamiyatga ega bo‘lsa ham bu sohadagi ishlar eski tuzumni qo‘llab-quvatlavchilar orasida ichki ziddiyatlarga olib keldi, birinchidan masjid-madrasalar yonida to‘plangan xalqning ko‘p asrlik ma’naviy xazinasi bo‘lgan kutubxonalarini yo‘q qilish bo‘lsa, ikkinchidan sovet hokimiyatining talabiga ko‘ra madaniy markaz bazasi sifatida kutubxonalar tashkil etish va siyosiy tarbiyalashda asosiy yo‘nalish etib belgilangani bayonlanadi.

1925-1926-yillarda siyosiy madaniy tashkilotlarning o‘sishi bilan kutubxonalarni kitoblar bilan ta’minlash, klub va qizil choyxonalarni asbob-uskunalar va adabiyot, gazeta jurnallar bilan ta’minlashdagi muammolar mavjud edi. 1926-yili siyosiy tarbiya tashkilotlarning ko‘payishi bilan Qoraqalpog‘iston sharoitida ularni tashkil etishda moddiy bazalari (aloqa, transport, binolar) bilan ta’minlashdagi muammolar arxiv manbalari asosida tahlil qilingan.

1938-yilda partiya targ‘ibot-tashviqotlarini tashkil etish qarori asosida Qoraqalpog‘istonnin barcha tumanlarida dinga qarshi targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish, siyosiy-ma’rifiy kadrlarni kurslarda tayyorlash, asosiy targ‘ibot-tashviqot ma’ruzalarini o‘tkazish masalalaridagi muammolar bor edi⁵⁹. Afsuski, mustabid tuzumning ma’rifatchilik ishlarida faol qatnashgan jamoatlik arboblardan A.Dosnazarov, A.Qudabaev, Q.Awezov, O.Ermanov, K.Nurmuhamedov, S.Majitov, I.Fazilov, M.Bekimbetov, K.Yakubovlar qatag‘onlik siyosatining qurbonlariga aylandi.

Qoraqalpog‘iston madaniyatining siyosiylashuv jarayoni ta’siridagi madaniy-ma’rifiy ishlar mavzusiga doir bajarilgan ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki yangidan tashkil etilgan kutubxonalar, qizil choyxonalar, qizil burchaklar, klublar, madaniyat uylari, o‘qish uylari kabi madaniy-ma’rifiy tashkilotlari aholini bol’sheviklar partiyasi siyosati asosida qayta tarbiyalashda xalq orasida kommunistik mafkurasini singdirishda asosiy tayanch bo‘lib xizmat qilgan.

“Qoraqalpog‘istonda matbuot va ommaviy axborot vositalari holati va rivojlanish muammolari” deb nomlangan ikkinchi paragrafida 1917-1941-yillarda sovet hukumati Turkiston o‘lkasida o‘z hokimiligini o‘rnatishda madaniy-ma’rifiy xizmatlarni bajaradigan matbuot va ommaviy axborot vositalarini buyuk qurol sifatida foydalanishga alohida e’tibor qaratganligi tadqiq qilinadi.

⁵⁸ Непесов Ф. 1920-1924-жыллардағы Хорезм халық совет революциясында Қарақлпақстан... мийнеткешлериниң роли. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1964. 147-148-бб.

⁵⁹ ЎР МА 58-фон, 13-рўйхат, 1364-йиғма жилд, 6-варак.

1917-1920-yillarda chop etilgan gazetalardagi materiallarning mazmuni sovet mustabid tuzumning siyosiy mafkurasini targ'ibot qilishga yo'naltirilgani, yangi tuzumga xizmat qiladigan ziyoli kadrlarni tarbiyalash bilan eski milliy ziyolilar faoliyatini to'xtatish maqsad qilingan edi. 1918-1919-yillarda "Matbuot byurosi", "Davlat nashiryoti"larining tashkil etilishi va Qoraqalpog'istonda birinchi gazetaning chop etilishi to'g'irisidagi tadqiqotchilar T.Ernazarov, S.Nurjanov, N.Abduezizovalarning ma'lumotlari asosida tahlil qilingan.

1920-yillarda Qoraqalpog'istonda xususiy bosmaxonalarning paydo bo'lishi, 1922-yilda Turkiston davlat nashryotining tashkil etilishi va ularning ish faoliyati haqida bayon qilinadi. 1924-1925-yillarda Qoraqalpog'iston Avtonom oblastida qoraqalpoq tilida gazetalarning chop etilishi va gazetani chiqarishdagi o'sha davrdagi mavjud muammolar, xodimlarning xizmat sharoitlari haqida manbalar keltirilgan.

Dastlabki "Erkin Qoraqalpaq" gazetasining birinchi soni 1924-yili dekabrda Xo'jaylida litografiya usulda bosib chiqariladi. Gazetaning Xo'jaylida chiqishining sababi, To'rtko'ldagi tipografiyaga 1924-yili oktyabrda bosmachilar tomonidan hujum qilinib, tipografiya yoqib yuborilgan⁶⁰. Qoraqalpog'istonda ilk bor "Miy-net" nomli radio gazetasi tashkil etilib, 1932-yili qoraqalpoq tilida radio eshittirishlar olib borildi. Radio qo'mitasining tuzilishi bilan xodimlarining xizmati va moddiy ta'minot masalalari ham kun tartibiga ko'tarildi⁶¹.

1930-1931-yillarida Qoraqalpog'istonda kitob matbuoti idorasini tuzish maqsadida Qoraqalpog'iston davlat nashryotining tashkil qilinishi va uning faoliyatidagi xizmat qilgan milliy ziyolilar, kitob bosib chiqaridagi muharrirlar malakasining o'rta ma'lumotligi, bosma mashinalar etishmasligi kabi muammolar mavjud bo'lgan.

1936-1940-yillarga kelib qoraqalpoq tilida darsliklar bosmadan chiqarish jarayoni, gazeta-jurnallarning ko'payishi, nashryot nusxalarining ortishi bilan bog'liq muvaffaqiyatlar bilan birga muammolar ko'zga tashlanadi. 1940-yili qoraqalpoq alifbosining rus grafigi asosida yangi alifboga o'tishi bilan bog'liq ommaviy o'quvchilar uchun dohiylarning tanlangan jildlik asarlari, mafkura va dinga qarshi adabiyotlarning nashr etilishi holatlarini ko'rish mumkin edi.

Milliy ziyolilarning asosiy qismi bo'lgan shoir yozuvchilar, jurnalistlar va sa'nat xodimlaridan I.Fazilov, N.Japaqov, M.Qunnazarov, R.Majitov, T.Safiev, S.Beknazarov, I.Bekbauliev, A.Irmanovlarning asarlarida, gazeta va teatr saxnalarida sovet tuzumigi qarshi millatchil targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borgan deb, uydirma tuhmatlar bilan ayblanib, qamoqqa olingani⁶² haqida ham to'xtalib o'tilgan.

Mavzuga doir tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sovet hukumati Qoraqalpog'istonda o'z hukumronligini o'rnatishda siyosiy mafkuraviy xizmatlarni bajaradigan matbuot va ommaviy axborot vositalarini buyuk qurol

⁶⁰ ҚР МДА 12-фонд, 38-рўйхат, 156-йиғма жилд, 19-варақ.

⁶¹ ҚР МДА 12-фонд, 3-рўйхат, 553-йиғма жилд, 347-348 варақлар.

⁶² Бабашев Ш. Қарақалпақстан Республикасы тарийхындағы сиясий қурбанлар (Тарийхымыздын жазылмаған бетлери). – Нөкис Қарақалпақстан, 2003. 217-226-бб.

sifatida foydalanishga alohida e'tibor qaratib yangi tuzumga xizmat qiladigan ziyoli kadrlarni tarbiyalashni maqsad qilgan edi.

“Mustabid tuzum siyosatining adabiyot va san’at ziyolilarining ijodiga tasiri” deb nomlangan uchinchi paragrafida sovet mustabid tuzumning o’rnashi bilan Qoraqalpoqstonda adabiyot va sa’nat madaniyat sohalarining rivojlanishida siyosiy tuzum va uning mafkuraviy qarashlari ta’sirida shakllanganligi tadqiq qilinadi.

Rossiyadagi Oktyabr to’ntarishidan so’ng qoraqalpoq xalqining og’zaki folklori va qo’lyozma adabiyot namunalari “feodal davr madaniyati” deb qabul qilindi. O’z navbatida qoraqalpoq san’ati milliy xususiyat belgilarini (jirovchilik, baxshichilik, qissaxonlik) namoyon qilgan va yangi turdagi teatr san’atiga asos solgan holda Sovet hukumatining “madaniy inqilob” siyosatini amalga oshirish yo’lida xizmat qildi.

Bolsheviklar partiya mafkurasi tomonidan yozuvchi shoirlarga Oktyabr inqilobi g’alabasi, Sovet hokimiyatining afzalligi, kommunistik partiya siyosati, dohiyning ulug’ ideyalariga sodiq bo’lgan yangi sovet odamlarining qiyofasi va turmushi, xalqlarning millatlararo qardoshlik – do’stligi va boshqa ko’plagan siyosiy mavzularda ijod qilish asosiy vazifa etib belgilandi.

Yozuvchilarning badiiy asarlarida “partiya”, “revolyutsiya”, “sotsializm” so’zlari bo’lmaganligi uchun ularning asarlarini millatchil yozilgan deb, qatag’on qilindi. Qoraqalpoq adabiyotida 1920-1930-yillarda sovet tuzumi siyosatini qo’llab ijod ko’rsatgan S.Majitov, A.Musaev, X.Axmetov, I.Fazilov, M.Daribaevlarning asarlari tahlil qilingan bo’lsa, o’sha davrdagi siyosatni tanqid qiluvchi A.Dabilov, S.Nurumbetov va Qidirniyaz baxshilarning asarlari ham keltirib o’tiladi. Bu davrda qoraqalpoq dramaturgiyasiga asos solgan dastlabki drama asarlari paydo bo’lib, A.Otepov, J.Aymurzaev, A.Begimov ushbu janrning boshlovchilari hisoblanadi⁶³.

Shuningdek, Qoraqalpog’istonda Yozuvchilar uyushmasi oldiga qo’yilgan vazifalarini bajarishda adabiy jarayon ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bog’liq 1931-1941-yillarda qoraqalpoq adabiyoti rivojlanishining ekinchi bosqichida sovet adabiyotining yangi vazifalari haqida ham to’xtalib o’tilgan. 1930-yillardan boshlab sovet tuzumining maxfiy qatag’onlik siyosati qoraqalpoq xalqining adabiyot, san’at sohalaridagi milliy kadrlarlaridan S.Majitov, Q.Awezov, I.Fazilov, N.Japaqovlar aybsiz qamoq jazosiga hukm qilindi.

XX asrning 20-30-yillarida Qoraqalpog’istonda teatr artistlari o’zlarining ko’rsatgan tamoshalari orqali xalq orasida yangi turmushni targ’ibot qilib, eskilikga qarshi kurash olib bordi va xalq orasida kommunistik g’oyalarni tarqatdi. Ular spektakllardan tashqari xalq orasida katta siyosiy va madaniy-ma’rifiy ishlarini olib bordi, tumanlarda drama krujoklar tashkillashtirildi, xalq ijodkorligining namunalari to’plandi⁶⁴.

Qoraqalpog’istonda san’atining yangi tarmog’i sifatida teatr san’ati 20-yillar boshida To’rtko’lda tuzilgan drama to’garaklari asosida paydo bo’lgan.

⁶³ Нәжим Дәўқараев шығармаларының толық жыйнағы т. III. (Қарақалпақ әдебияты тарихының очерклері). – Нөкис: Қарақалпақстан, 1979. 211-212-бб.

⁶⁴ ҚР МДА 1-фонд, 160-рўйхат, 451-йиғма жилд, 69-варақ.

1919-yilning oxiri 1920-yilning boshlarida teatr to'garaklari Qo'ng'iroq, Chimboy shaharlarida paydo bo'ladi. Petro-Aleksandrovska musiqa jamiyatining tashabbusi bo'yicha 1921-yili Amudaryo bo'limi ijro qo'mitasining qarori bilan To'rtkulda birinchi shaharlik klub, kutubxona, kinoteatr ochiladi⁶⁵. 1920-yilda dastlabki havoskorlar krujogining tashkil etilishi bilan, Qoraqalpoq milliy truppasi asoschisi Z.Qasimov va truppaning tashkil etilishida Q.Awezov, S.Majitov, A.Otepovlarning xizmati kata bo'ldi⁶⁶. 1927-yili "Tan nuri" milliy truppasining tashkil etilishi va undagi xizmat ko'rsatgan dastlabki aktyor va aktrisalarga haqida bayon qilinadi.

1930-yili Qoraqalpoq Davlat teatrining tashkil etilishi va teatr faoliyatida tumanlarda tashkil etilgan safarlari, teatr krujoklari, namoyish etilgan spektakllari haqida to'xtalib, 1934-1936-yillarda teatrga Qozog'iston va boshqa respublikalardan kelgan rejissarlarga iqtidorli yoshlarni tanlash, o'qishga yuborish, teatrdagi spektakllar namoyish etishdagi xizmatlari alohida ta'kidlangan. 1930-yillardan boshlangan qatag'onlik siyosati teatrining shakllanishi va rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan milliy ziyolilarimiz A.Otepov, I.Bekbawliev, A.Irmanov, Axmed baxshi Matnazarovlar gunohsiz ayblanib surgun qilinib va qamoqqa olingani manbalar asosida tahlil qilinadi.

XULOSA

1. Qoraqalpog'istonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi bilan xalqning din va ma'naviy madaniyatga munosabatida mahalliy xalq orasidagi islom dini va madaniyatini targ'ibot qilib, xalqni ma'naviy yetuklikka, ma'rifatparvarlik ishlariga tarbiyalab kelgan eshon, ulamo va ruhoniylarga qarshi keskin sinfiy kurash boshlandi. Mustabid tuzumning 1923-yildan boshlab olib borgan dinga qarshi targ'ibot-tashviqot ishlarida "cherkovni davlatdan, maktabni cherkovdan ajratish", masjid-madrasalarni yopish haqidagi qonunsiz dekretlari natijasida eshon, ulamo va boy savdogarlar yangi sovet tuzumiga qarshi millatchilar sifatida ayblanib, aksilinqilobiy millatchi sifatida quvg'in qilindi.

2. Mustabid tuzum siyosati o'tgan asrning 20-yillaridan boshlab dinga qarshi kurash olib boradigan tashviqotchi "Kurashchan xudosizlar ittifoqi" tashkil qilinib, uning tarkibiga mahalliy aholi orasidan yetarli bilimga ega bo'lmagan kambag'al qatlam vakillarini o'z safiga qo'shib, ulardan g'arazli maqsadlarda foydalandi va totuv yashab kelayotgan oilalarni bir-biriga qarshi qilib qo'ydi.

3. Qoraqalpog'istonda bolsheviklar siyosati mafkurasiga tayanib jamiyatning butun ma'naviy hayotida hamda ta'lim tizimida sovetlashish jarayonini jadallashtirish uchun "madaniy inqilob" g'oyalarini amalga oshirishga kirishdi. Bunda mahalliy aholi tarkibidagi eski ziyolilarning savodxonligini tan olmasdan muqaddam aholining dinu diyonatini oshirishda xizmat qilib kelgan masjid-madrasalar xizmati bekor qilindi, "Yangi usul maktab"lari o'z o'rnlarini sovetcha ta'lim berish maktablari bo'shatib berdi va bu maktablarda yangi sovet ziyolilarini shakllantirish maqsad qilindi.

⁶⁵ ҚР МДА 26-фонд, 1-руйхат, 497-йиғма жилд, 11-варақ.

⁶⁶ Қарақалпақстанның жаңа тарийхы / Қарақалпақстан XIX әсирдің екінші ярымынан XXI әсирге шекем – Нөкіс: Қарақалпақстан, 2003. 390-391-бб.

4. XX asrdan boshlab xalqning madaniy iqtisodiy va ijtimoiy qoloqligi, savodsizligini bartaraf etishda Qoraqalpog‘istonda jadidchilik harakati asoschilari Q.Latipov, Z.Shakirov, Yu.Axmedov, M.So‘fizoda, Qazi Mawlik, S.Majitov, A.Musaevlarning aholi orasida dunyoviy kitoblarni tarjima qilish va ijodiy faoliyati davom etdi. Natijada ma‘rifatvarlik faoliyati asosida shakllangan eski diniy maktablar Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng ham 1930-yilga qadar 500 ta masjid va 308 ta musulmon ruhoniylarining ta‘lim faoliyati o‘z davrining ilg‘or ma‘rifatchilarini tayyorlashda o‘z hissasini qo‘shdi.

5. Qoraqalpog‘istonda pedagog kadrlarini qayta tayyorlashda dastlabki tuzilgan qisqa kurslar, instruktaj maktablar va o‘qituvchi tayyorlaydigan kurslar yangi tashkil etilgan maktablarning o‘qituvchi kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondira olmadi. Shu sababli Amudaryo bo‘limi Inqilobiy qo‘mitasi masjid-madrasa va rus-tuzem maktablaridan chiqqan musulmon o‘qituvchilarni Samarqandga qayta tayyorlash kurslariga yubordi va Rossiyaning markaziy shaharlari bilan qardosh respublikalardan mutaxassis pedagog kadrlar safarbar qilindi.

6. Qoraqalpog‘istonda yagona oliy o‘quv yurti hisoblangan Pedagogika institutining ochilishi va unda oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash markaziy shaharlardan kelgan tajribali o‘qituvchi kadrlar yordamida amalga oshirildi. Institutning dastlabki o‘qituvchilari tarkibidagi ko‘plab milliy ziyolilarning qatog‘on yillarida aybsiz ishdan bo‘shatilib, qamoqqa olinishi oliy o‘quv yurtida mahalliy kadrlarning shakllanishiga salbiy ta‘sirini ko‘rsatdi.

7. Mustabid tuzumning ma‘rifatparvarlik, targ‘ibot-tashviqot ishlarini mahalliy aholiga yetkazishda davlat va jamoat arboblardan A.Dosnazarov, A.Qudabaev, Q.Awezov, O.Ermanov, K.Nurmuhamedov, S.Majitov, I.Fazilov, M.Bekimbetov, K.Yakubovlar davlat va jamoatchilik ishlarni bajarish bilan butun hayotini Qizil imperiyaning o‘rnatilishi va mustahkamlanishiga bag‘ishladi. Shunday bo‘lsa ham bu imperiyaviy tuzum ularning xizmatini va xarakatini adolatli baholamay, qatag‘on siyosatining qurbonlariga aylantirdi.

8. 1920-yillardan boshlab Qoraqalpog‘istonda “Madaniy inqilob” choralari amalga oshirish maqsadida yangidan tashkil etilgan “qizil karvon”, “qizil choyxona”, “dehqonlar uyi”, “qizil burchak”, “klublar”, “kutubxona”, “agitpunkt” kabi madaniy-ma‘rifiy tashkilotlarining o‘zgacha shakllari orqali xalq ma‘naviyatidagi barcha milliylikni, qadriyatlarini eskilik qoldiqlari sifatida siqib chiqarib, aholining kambag‘al qatlamiga mustabid tuzumning kommunistik mafkurasiga ishontirishda xizmat qiladigan tayanch markaz vazifalarini bajardi.

9. 1917-1941-yillarda Qoraqalpog‘iston matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyati keng aholi qatlamlari orasida bolsheviklar partiyasi mafkaraviy siyosatini targ‘ibot qilishga qaratildi. Qoraqalpog‘iston Avtonom oblasti tuzilganidan so‘ng dastlabki qoraqalpoq tilida tashkil etilgan gazeta materiallarida asosan, kommunistik partiya qarorlari, ko‘rsatmalari va sotsialistik qurilish jarayonidagi masalalar chop etiladi.

10. Sovet hukumati qoraqalpoq xalq adabiyotiga qarshi mafkuraviy xurujni joriy qilib, xalqning tabiati va hayot tarziga mos kelmaydigan sotsialistik turmush

tarzini, ya'ni sotsialistik realizm metodini joriy etdi va yozuvchi shoirlarga partiyaning mafkuraviy ko'rsatmasi bilan ijod qilish mavzulari belgilab berdi.

11. Qoraqalpoq yozuvchilarning dramatik asarlari asosida Qoraqalpoq dramaturgiyasiga asos solindi va Qoraqalpoq yozuvchilari uyushmasi va "Miynet adabiyati" badiiy jurnali tashkil qilinib, adabiy-badiiy asarlar mavzulari ko'paygani bilan Oblast partiya qo'mitasining respublikadagi barcha adabiy jarayonlarga nazorati kuchaydi. Qoraqalpoq proletar yozuvchi kadrlarini tayyorlashda yoshlar Sovet ittifoqining yirik madaniy markazlariga o'qishga yuborildi va yangi qoraqalpoq sovet adabiyotining milliy ziyolilari shakllandi.

12. Qoraqalpog'istonda teatr san'ati 20-yillar boshida tuzilgan havaskorlar to'garaklari asosida paydo bo'ldi. Dastlab havaskorlar to'garagi To'rtko'l, Qo'ng'iro't, Chimboy shaharlaridagi klub, madaniyat uylari, qizil choyxonalar qoshida tashkil etildi. 1924-yilda tashkil etilgan qoraqalpoq, rus drama to'garaklari o'zlarining kuy, raqs tomoshalari bilan aholini sotsialistik madaniyat qurilish jarayonida faol qatnashini rag'batlantirish maqsadida tumanlarga safarbar qilindi.

Tadqiqot natijalarida qo'lga kiritilgan ilmiy xulosalar asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi.

1. 1917-1941-yillar oralig'idagi Sovet tuzumi davrida o'rganilmagan xalqning diniy va ma'naviy madaniyatiga tegishli tarixiy manbalarni to'plash va to'plam shaklida chop etish;

2. O'zbek, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida 1920-1930-yillardagi ziyolilar kadrlarining ta'lim sohasida kadrlarini tayyorlashdagi jamoatchilik ishlari aks etgan internet sayti yaratish;

3. 1917-1941-yillardagi davlat va jamoat arboblari ziyolilarining ta'lim, madaniy-ma'rifiy ishlari, matbuot, adabiyot va san'at sohalaridagi xizmatlarni ifodalaydigan badiiy adabiyotlar va hujjatli fil'mlar yaratish;

4. Oliy o'quv yurtlarining gumanitar fakul'tetlarida Qoraqalpog'iston tarixiga oid o'quv qo'llanmalarni madaniyat va san'at arboblarning xizmatini ifodalaydigan ma'lumotlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Tar.20.05 ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**НУКУССКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

САГЫНДИКОВ БАХЫТЖАН АБДИЖАНОВИЧ

**КУЛЬТУРА КАРАКАЛПАКСТАНА В 1917-1941 ГОДЫ: ПРОБЛЕМЫ И
РЕШЕНИЯ**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Нукус – 2023

Тема докторской диссертации на соискание ученой доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии В№В2023.2.PhD/Тар987

Диссертация выполнена в Нукусском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.karsu.uz) и на информационно-образовательного портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net)

Научный руководитель:

Айтмуратов Жалгас
кандидат исторических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Нуржанов Сабит Узаббаевич
доктор исторических наук, с.н.с

Ходжаметова Гулшйра Илишевна
кандидат исторических наук, профессор

Ведущая организация:

Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится «17» X 2023 года в 16:00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Тар.20.05 по присуждению ученых степеней при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч. Абдилова № 1. Тел.: (99861)223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Каракалпакского государственного университета (зарегистрирована под номером 156). Адрес: 230112, г.Нукус, ул. Ч.Абдилова, №1 Тел: (99361) 223-60-49; Факс:(361) 223-60-49).

Автореферат диссертации разослан «04» X 2023 года.
(реестровый протокол под номером № 5 от 04, X 2023 года).



Р.Б. Баллиева
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор исторических наук, профессор

Х.М. Отегенов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD) по
историческим наукам, доцент

Б.А. Кошанов
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор
исторических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. В эпоху сложных глобализационных изменений, происходящих в сегодняшний день, актуальное значение приобретает необходимость сохранения национальной идентичности в культуре различных народов, наций и народностей, привитие национальных ценностей в сознание будущих поколений. Изучение истории приобретает все большее значение в рамках реализуемых мировым сообществом программ по прославлению национальных, традиционных и религиозных ценностей. Действительно, требуют глубокого изучения влияние реформ, проводимых тоталитарным режимом, на национальные ценности, духовность народа и социальное положение.

В мире продолжают исследования, направленные на анализ сложных событий истории советского периода, объективную научную оценку событий и явлений, произошедших в то время, выражение отношения к концептуальным вопросам, на историю, придерживаясь принципов беспристрастности и объективности. Также предпринимаются усилия по устранению последствий негативного влияния большевистской идеологии, господствовавшей в колониальных условиях, на религиозное, духовное и национальное наследие, особенно в воспитании молодежи в духе национальных и общечеловеческих ценностей.

В последние годы проводятся эффективные реформы, направленные на повышение роли науки и образования в духовном и культурном направлениях развития общества. В частности, сохранение, изучение и передача исторического наследия из поколения в поколение стало одним из важнейших приоритетов государственной политики. Ведь «В великой истории ничто не проходит бесследно. Она сохраняется в крови и исторической памяти народов, проявляется в их практической деятельности. Вот почему она могущественна»¹. В связи с этим проведение анализа проблем и потерь в процессе политизации отношений к национальным традициям, духовным и религиозным ценностям народа, кадровой, культурно-образовательной и других сфер в ходе реализации культурно-революционных реформ правящей идеологии в советское время на основе архивных источников является одной из актуальных задач исторической науки.

Данная диссертационная работа в известной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан от 7 февраля 2017 года, УП - 4947 «О стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан», в Указе Президента Республики Узбекистан 28 января 2022 г. № УП-60² «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», Постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-3920 «О мерах

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараккиёт йулимизни катъият билан давом эттириб, янги босқичга кутарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-жилд. 29-б.

² <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

по инновационному развитию сферы культуры и искусства в Республике Узбекистан» от 26 августа 2018 года, №ПП-291 «О мерах по дальнейшему развитию сферы культуры и искусства в Республике Каракалпакстан» от 8 мая 2021 года, ПП-36³ «О дальнейшем совершенствовании системы поддержки развития культуры и искусства» от 9 декабря 2021 года и других нормативных правовых актах, касающихся данной отрасли.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан «Формирование системы инновационных идей и пути их осуществления для социального, правового, экономического, культурного, духовно-просветительского развития информатизированного общества и демократического государства».

Связь диссертационного исследования с планом научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором была выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках программы научно-исследовательских работ в Нукусском государственном педагогическом институте по теме «Актуальные проблемы истории Каракалпакстана».

Степень изученности проблемы⁴. Историографические научные работы по истории культуры Узбекистана в XX веке освещены Д.А.Алимовой, Н.А.Мустафаевой. Новые методологические подходы в истории культуры, науки, образования, литературы и искусства XX века нашли свое выражение в монографиях ученых историков.

Заслуживают внимания историографические интерпретации в книгах каракалпакских историков У.К.Шалекенова, А.А.Панабергенова, И.К.Косымбетова и А.Сабилова.

В научных трудах каракалпакских ученых Р.Г.Тимашевой, Ж.А.Урунбаева, Б.Шамамбетова, Б.Зокирова, Р.Ж.Уразбаевой важное место занимает изучение вопросов истории народного образования, высшего, среднего специального, профессионального образования и подготовки кадров.

Историографические вопросы становления и развития интеллигенции в истории культуры Каракалпакстана нашли отражение в научных трудах И.К.Косымбетова, Т.Кутимова, П.Муратовой и других.

Заслуживают внимания мнения М.К.Нурмухамедова, С.Камалова, Р.Жанабаева, М.Тилеумуратова, интерпретировавших исследования по вопросам сотрудничества, взаимоотношений с другими братскими народами и развития науки и культуры каракалпакского народа.

В период независимости история культуры края нашла свое отражение в трудах ряда ученых по истории культуры страны.

³ <https://lex.uz/uz/docs/-5765882>.

⁴ Подробный и полный анализ литературы по теме проводится в первой главе.

